



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNI UYG'UNLASHTIRISH MUAMMOSINI O'RGANISH METODOLOGIYASI

Akchaev Farrux Shavkatovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti, birinchi prorektor, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy va diniy qadriyatlar uyg'unlashuvini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari Yevropa va Amerika ilmiy maktablari vakillari qarashlari asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning zamonaviy jamiyatdagi o'zaro ta'siri, ijtimoiy-ma'naviy jarayonlardagi ahamiyati hamda ilmiy o'rganish usullari yoritiladi.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, uyg'unlashuv, metodologiya, tadqiqot, globallashuv, axborot makoni, ma'naviyat, ijtimoiy taraqqiyot, an'analar, madaniyat.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОБЛЕМЫ ГАРМОНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕЛИГИОЗНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Акчаев Фаррух Шавкатович

Джизакский государственный педагогический университет, первый проректор, доцент

Аннотация

В статье анализируются теоретико-методологические основы исследования гармонизации национальных и религиозных ценностей на основе взглядов представителей европейских и американских научных школ. Также рассматриваются их взаимное влияние в современном обществе, значение в социально-духовных процессах и методы научного изучения.

Ключевые слова: национальные ценности, религиозные ценности, гармонизация, методология, исследование, глобализация, информационное пространство, духовность, социальное развитие, традиции, культура.

METHODOLOGY FOR STUDYING THE PROBLEM OF HARMONIZATION OF NATIONAL AND RELIGIOUS VALUES

Akchaev Farrukh Shavkatovich

Jizzakh State Pedagogical University, First Vice-Rector, Associate Professor

Abstract

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of studying the harmonization of national and religious values based on the views of representatives of European and American scientific schools. It also examines their interaction in modern society, their significance in socio-spiritual processes, and methods of scientific investigation.

Keywords: national values, religious values, harmonization, methodology, research, globalization, information space, spirituality, social development, traditions, culture.

Millat yoki etnosga xos milliy va diniy qadriyatlarning rivojlanishi asrlar davomida etnos hayoti bilan bog'liq tabiiy omillar, mafkuraviy o'zgarishlar hamda turli tarixiy davrlarda amalga oshirilgan siyosiy jarayonlar ta'sirida shakllanib borgan. Bu jarayonda an'analar va marosimlar jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, dunyoqarashi hamda madaniy muhiti bilan uzviy aloqada rivojlangan.

Xususan, XX asrning ilk choragidan boshlab xalqlarga xos milliy va diniy marosimlar, qadriyatlar hamda an'analarni ilmiy jihatdan o'rganishga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortgan. Mazkur jarayon, asosan, mustamlakachilik siyosati doirasida shakllangan bo'lib,

mustamlakachi davlatlar tomonidan bosib olingan hududlarning moddiy va nomoddiy madaniy merosini har tomonlama o'rganishga qaratilgan siyosiy va ilmiy ehtiyoj bilan bog'liq holda yuzaga kelgan.

Ammo milliy va, ayniqsa, diniy an'analarni alohida akademik fan tarmog'i sifatida o'rganishga bo'lgan intilish, shuningdek, uni fanning mustaqil tadqiqot obyekti sifatida ilmiy maydonga olib chiqish o'tgan asrning 1960-yillariga to'g'ri keladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, marosimlarga qiziqishning antropologiya va dinshunoslik nuqtai nazaridan shakllanishi ancha uzoq tarixga ega jarayon hisoblanadi. Klassik fan namoyandalari Edvard Taylor, James Frazer va Emil Durkheim kabi ilk antropologlar turli madaniyatlardagi marosim amaliyotlarini hujjatlashtirish, tahlil qilish va tavsiflash orqali dastlabki tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Bu tadqiqotlar o'rganilayotgan etnosga xos milliy o'zlik masalasini ochib berish bilan bog'liq izlanishlarning bir qismi sifatida talqin qilinishi mumkin. Biroq ushbu dastlabki yondashuvlarda marosimlar ko'proq diniy e'tiqod yoki ijtimoiy birlik ifodasi sifatida tushuntirilgan.

Yuqorida aytganimizdek, milliy va diniy omillar o'rtasidagi munosabatlar muammosiga katta qiziqish 1960–1980-yillarda kuzatildi. Biroq tadqiqotchilarning milliy va diniy omillar muammolariga qaratgan e'tiboriga qaramay, ularning ijtimoiy falsafa va dinshunoslik sohasidagi ishlariga nisbatan ulushi cheklangan edi [9; 16-b.]. Shu bilan birga, milliy va diniy qadriyatlar bilan bog'liq marosimlar ibtidoiy diniy qarashlardan tortib, yirik sivilizatsiyalar davri, dunyoviy dinlar shakllanishi va institutsional rivojlanish bosqichlarigacha bo'lgan jarayonlarda turlicha namoyan bo'lgan.

Shuning uchun ham milliy va diniy an'analar masalasi tarix, etnografiya, antropologiya, dinshunoslik, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, falsafa va psixologiya fanlarining kesishgan nuqtasida shakllangan tadqiqot obyekti sifatida ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Ushbu masalani o'rganishga doir nazariyalar, metodlar va qarashlar ham turlicha bo'lib, avvalo etnos uchun milliy yoki diniy an'analardan qaysi biri ustuvor ahamiyat kasb etishi xususida munozaralar yuzaga kelgan.

Fransuz sotsiologiya maktabi asoschisi E. Durkheimning fikricha, jamiyat a'zosi uchun marosim — bu ramziy tarzda olamni modellashtirish, shaxsiy yopiq tizimni yaratish, saqlash va uni boshqarish, shuningdek, fazoviy tamoyillar bilan bog'liq munosabatlarni amaliy sinovdan o'tkazish vositasi hisoblanadi [10; 174–231-b.]. Olim ilohiy va dunyoviy olamlarning o'zaro ta'siri g'oyasiga asoslanib, barcha marosimlarni ikki guruhga — salbiy va ijobiy marosimlarga ajratgan. Uning fikricha, salbiy marosimlar ilohiylik va dunyoviylik o'rtasidagi chegaralarni belgilash uchun xizmat qiladi. Ijobiy marosimlar esa shaxsni ilohiylikka yaqinlashtirish maqsadida bajarilib, turli ko'rinishlarda amalga oshiriladi [10; 184-b.]. E. Durkheim tomonidan ilgari surilgan marosimlar haqidagi ushbu nazariy qarashlar mazkur tadqiqot mavzusini anglashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Uning fikricha, marosimlar jamiyat a'zolari uchun nafaqat ramziy harakatlar majmuasi, balki olamni anglash va tartibga solishning o'ziga xos ijtimoiy mexanizmi hamdir. Shu nuqtai nazardan, marosimlar insonning ichki dunyosi va tashqi ijtimoiy muhit o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

XX asrning ikkinchi yarmida Amerika va Yevropa ilmiy maktablarida an'analar hamda ularda milliy va diniy qadriyatlarning aks etishi masalasini o'rganishda yangi metod va qarashlar shakllana boshladi. Dastlab tadqiqotlar asosan diniy-falsafiy va tarixiy tasniflar berish bilan cheklangan bo'lsa, keyinchalik antropologik, sotsiologik va madaniyatshunoslik kabi fanlararo metodlar asosidagi yondashuvlar ustunlikka ega bo'la boshladi. Amerika maktabi diniy motivlarga ustuvor ahamiyat bergan bo'lsa, Yevropa va bugungi kunda Sharq davlatlaridagi maktablar milliy qadriyatlar hamda etnos shakllanishida milliylikning o'rniga alohida urg'u qaratmoqda.

Amerika maktabi vakillari diniy an'analar milliy an'analarga nisbatan jamiyatda ijtimoiy jihatdan ustun bo'lib, juda ko'p funksiyalarni bajarishini, shuningdek, bu masalani etnosga bog'lab tadqiq qilishdan ko'ra, madaniy va ijtimoiy guruhlar miqyosida o'rganish maqsadga

muvofigligini ta'kidlaydilar. Umuman olganda, ular diniy an'analarni ijtimoiy va madaniy guruh a'zolarini aniqlovchi, jamoaga sodiqlikni ta'minlovchi, guruhlararo o'zaro hamkorlikni yengillashtiruvchi va hamjihatlikni saqlovchi vosita sifatida o'rganish muhimligini qayd etadilar [3; 1181 p.].

Shu bilan birga, mazkur yondashuvni muayyan darajada cheklangan deb baholash mumkin. Chunki milliy va diniy an'analar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularni bir-biridan ustun qo'yish yoki alohida holda tahlil qilish har doim ham to'liq ilmiy natijalarni ta'minlamaydi. Ayniqsa, o'zbek jamiyati misolida milliy va diniy an'analar ko'p hollarda o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'lib, bir-birini to'ldiruvchi va mustahkamlovchi vazifani bajaradi.

Yevropa maktabi vakillari esa diniy motivlarga asoslangan an'analar hamda ular asosida shakllangan madaniy muloqot va etnik-madaniy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir nafaqat madaniy meros va ijtimoiy birdamlik masalalarini, balki individual o'ziga xoslik va ijtimoiy barqarorlikni ham qamrab olishini ta'kidlaydilar [6; 225–257-pg.]. Shuningdek, etnik-madaniy an'analar jamiyat birdamligi va barqarorligida muhim rol o'ynaydi. Ular etnik guruhlarining jamoaviy ongi va xulq-atvor normalarini birlashtiradi, ijtimoiy a'zolar o'rtasida birdamlik va yakdillikni mustahkamlaydi. Umumiy e'tiqod va qadriyatlarni tarqatish orqali etnik-madaniy an'analar ijtimoiy a'zolar o'rtasida o'ziga xoslik va mansublik tuyg'usini kuchaytiradi, shu bilan ijtimoiy bo'linish va nizolarni kamaytiradi hamda ijtimoiy uyg'unlik va barqarorlikni saqlaydi.

Boshqa tomondan, etnik-madaniy qadriyatlar individual xulq-atvor va ijtimoiy normalarni boshqaradi va tartibga soladi. Ular ijtimoiy xulq-atvor uchun muhim yo'naltiruvchi tamoyillar bo'lib, individual axloqiy xulq-atvor va ijtimoiy o'zaro ta'sirlarni tartibga soladi, a'zolarini jamoat axloqiy me'yorlari va xulq-atvor normalariga rioya qilishga yo'naltiradi [8; 140–144-p.]. Mazkur yondashuv etnos uchun aynan shu muhitda shakllangan milliy an'ana va qadriyatlarining o'rni muhim ekanini ko'rsatishga intiladi.

Diniy an'analarga oid mazkur qarashlar ularning jamiyat hayotidagi ko'p qirrali ijtimoiy va ma'naviy funksiyalarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Unga ko'ra, diniy an'analar shaxsning mas'uliyatli, izchil, samimiy va fidoyi xulq-atvorini shakllantirishda, shuningdek, jamoaviy birdamlik, uyg'unlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi [7; 2058-p.]. Bunday yondashuvda diniy an'analar nafaqat diniy hayotning tarkibiy qismi, balki keng ma'noda madaniy va ijtimoiy tartibni saqlovchi mexanizm sifatida talqin qilinishi muayyan darajada ilmiy asoslangan bo'lib, diniy an'analarning shaxs va jamiyat hayotidagi integrativ hamda regulativ funksiyalarini to'g'ri aks ettiradi. Darhaqiqat, diniy an'analar shaxsning axloqiy qiyofasini shakllantirish, uning xulq-atvorini muayyan me'yorlar doirasida ushlab turish, shuningdek, jamoadagi munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda, ular jamoaviy an'analarni saqlash, hatto diniy mazmunga ega bo'lmagan urf-odatlarining ham barqaror saqlanib qolishiga xizmat qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, milliy va diniy an'analar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikka alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki amalda bu ikki tizim ko'p hollarda yakka holda emas, balki o'zaro uyg'unlashgan tarzda faoliyat ko'rsatadi. Ayrim vaziyatlarda ular alohida namoyon bo'lishi mumkin bo'lsa-da, aksariyat hollarda milliy va diniy an'analar birgalikda etnosga xos madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil sifatida ishtirok etadi [2; 151–169-pg.].

Bu jarayonda an'analar insonning kundalik hayotidagi ehtiyojlarni qondirish, ijtimoiy muhitga moslashish hamda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bois diniy an'analarni faqat axloqiy yoki madaniy omil sifatida emas, balki keng ijtimoiy tizimning tarkibiy qismi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Zotan, ular shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish, ijtimoiy tartibni ta'minlash va madaniy merosni avlodlardan-avlodga uzatishda muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, milliy yoki diniy an'analarning hududiy o'ziga xoslik bilan bog'liqligini anglashda ijtimoiy va madaniy antropologiyaning madaniy xotira konsepsiyasi ham muhim

nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv J. Assmann tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda jamiyatda amalda mavjud bo‘lgan an‘analarning (milliy yoki diniy motivga ega bo‘lishidan qat‘i nazar) yashovchanligi, ularning avloddan-avlodga ramzlar, qadriyatlar va moddiy ko‘rinishlar orqali o‘tishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [1; 344-b.]. J. Assmannning asosiy nazariyasi shundan iboratki, u madaniy merosni ijtimoiy guruhning o‘zini anglashi va hududiy o‘ziga xoslikni shakllantiruvchi tizim sifatida talqin qiladi. Ya‘ni, etnosga doir milliy va diniy an‘analarning oilaviy va jamoaviy marosimlarda, moddiy va nomoddiy madaniyatda turli ko‘rinishlarda aks etishi o‘sha xalqning etnik o‘zligi va mansubligi masalasini ochib beruvchi kalit vazifasini o‘taydi. Jumladan, o‘zbeklarga xos milliy va diniy an‘analarning ijtimoiy makonda u yoki bu ko‘rinishda ayro hamda qorishiq holda yashab kelayotgani “o‘zbekchilik” kodini ko‘rsatuvchi omildir.

Keyinchalik bu qarash P. Nora tomonidan ilgari surilgan madaniy meros konsepsiyasi orqali yanada mazmunan kengaytirildi [4; 640-p.]. P. Nora madaniy meros tarkibini yanada aniqlashtirib, moddiy va ramziy obyektlar jamiyatning tarixiy xotirasini mujassamlashtiruvchi markaziy belgilar sifatida faoliyat yuritishini ko‘rsatgan. Mazkur nazariy yondashuvlar doirasida o‘zbeklarning milliy va diniy an‘analarini muayyan hududning tarixiy tajribasi, madaniy-estetik qarashlari va ijtimoiy o‘ziga xosligini ifodalovchi madaniy birlik sifatida talqin qilish mumkin.

Shu davrga qadar yaratilgan tadqiqotlar va ilmiy-nazariy qarashlarni o‘rganish natijasida aytish joizki, an‘anani murakkab madaniy hodisa sifatida tahlil qilish uning mohiyatini tushunish uslublarida muayyan yondashuvlarni aniqlash imkonini beradi. Quyida ushbu masala yuzasidan mavjud bo‘lgan asosiy ilmiy-nazariy qarashlar keltiriladi:

— funksional yondashuv — an‘ana ijtimoiy hayotni qayta ishlab chiqaruvchi mexanizm sifatida qaraladi;

— nomologik yondashuv — an‘ana umumiy sotsiologik qonun sifatida tushuniladi;

— normativ yondashuv — an‘ana norma, ijtimoiy tartibga solishning muayyan shakli sifatida baholanadi;

— kommunikativ yondashuv — an‘ana jamiyat kommunikativ infratuzilmasining bir turi sifatida namoyon bo‘ladi;

— strukturaviy yondashuv — an‘ana turli inson guruhlarida takrorlanadigan ijtimoiy uyushgan stereotiplarda ifodalangan guruh tajribasi yoki bunday tajribaning muayyan elementi sifatida qaraladi [12].

An‘ana har qanday boshqa ijtimoiy institut singari insoniyat tamadduni tarixi bilan yonma-yon rivojlanadi, o‘zgarishlarga va evrilishlarga uchraydi. Uni ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tahlil qilish an‘analarning mohiyatini anglash metodologiyasiga oid muayyan yondashuvlarni aniqlash imkonini beradi.

Ijtimoiy antropologiyada funksionalizm tarafdorlari madaniy hodisalarni, jumladan, an‘ana, urf-odat va marosimlarni ularning kuzatiladigan xususiyatlariga, ya‘ni bajarayotgan vazifalari va shakliga asoslanib o‘rganishni targ‘ib qiladilar [11; 416-b.]. Shu jihatdan, o‘zbeklarning diniy an‘analarini ularning asl holati bilan bir qatorda zamonaviy jamiyatda shaklan yoki mazmunan o‘zgargan holatda namoyon bo‘lishi, shuningdek, milliy an‘analar bilan o‘zaro uyg‘unlashuvini tahlil qilishda bugungi kunda bajarayotgan funksiyasiga ko‘ra baholash muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy antropologiya va etnologiyada etnosga doir milliy va diniy an‘analarga xos tushunchalarni ijtimoiy institut sifatida anglash aksariyat hollarda strukturaviy-funksional yondashuv doirasida muhokama qilinadi. Bu yondashuv jamiyatni bir-biri bilan uzviy bog‘langan turli unsurlar tizimi sifatida talqin qiladi va har bir institutning jamiyat barqarorligidagi o‘rnini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Ijtimoiy antropologiya yo‘nalishidagi ko‘plab tadqiqotlarning nazariy-metodologik asosini aynan strukturaviy-funksional yondashuv tashkil etadi. Ushbu yondashuv o‘zbeklarning milliy va diniy an‘analarini jamiyatda muayyan ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi tizim sifatida tahlil

qilish imkonini yaratadi.

Strukturaviy-funksional yondashuv nuqtayi nazaridan milliy va diniy anʼanalar alohida ijtimoiy institutlar sifatida jamiyat ichida muayyan funksiyalarni bajaradi. Ular millatga xos anʼanalarni, bilimlarni avloddan-avlodga uzatish, ijtimoiy nazoratni amalga oshirish, oiladagi yosh toifalari oʻrtasidagi iyerarxik munosabatlarni tartibga solish, anʼanaga muvofiq oila ichidagi maqomni belgilash kabi vazifalarni bajaradi [3; 228-p.].

Ikkinchi tomondan, strukturaviy-funksional tahlil muayyan etnosga xos anʼanalar, qadriyatlar hamda urf-odatlarini turli vazifalarni bajarish nuqtayi nazaridan koʻrib chiqish imkonini beradi [5; 26-p.]. Shu jihatdan, oʻzbeklarga xos diniy va milliy anʼanalarning jamiyatda siyosiy, ijtimoiy hamda maishiy vazifalarni bajarishi, oilaviy munosabatlarni yoʻlga qoʻyish, oilani saqlab qolish, marosimlarni bir tartibda oʻtkazish mexanizmini ishlab chiqish, moddiy madaniyatning mazmunan aslligini saqlagan holda shaklan zamonaviy qiyofa kasb etishi, milliylik va diniy qarashlarga uygʻunlashishi kabi funksiyalarni bajarishini qayd etish joiz.

Sinxron uslub — masalaga doir turli voqea va hodisalarni bir vaqtning oʻzida oʻrganishga asoslangan tadqiqot usuli hisoblanadi. Mazkur uslub oʻzbek xalqining moddiy va nomoddiy turmush tarzida namoyon boʻluvchi anʼanalarning mintaqaviy xususiyatlarini aniqlash maqsadida qoʻllaniladi. Jumladan, togʻ va togʻoldi hududlari hamda tekislik mintaqalarida yashovchi aholi hayoti, qishloq va shahar muhiti, shuningdek, chegara hududlari va markazga yaqin joylarda istiqomat qiluvchi aholi oʻrtasida milliy anʼanalar va diniy qadriyatlarining ijtimoiy hayotdagi ifodalanishi qiyosiy-parallel tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Natijada turli hududiy va madaniy qatlamlarning mazkur anʼanalarga nisbatan munosabati hamda ularning namoyon boʻlish shakllari ilmiy jihatdan tadqiq etiladi. Qiyosiy-tarixiy usul orqali esa oʻzbeklarga xos milliy va diniy anʼanalarni jins, yosh toifasi hamda kasb nuqtayi nazaridan solishtirma tarzda tahlil qilish mumkin. Shuningdek, anʼanalarning zamonaviy jamiyatda transformatsiyaga uchrashi, yoshlarning diniy va milliy anʼanalarning klassik koʻrinishlariga munosabati va amal qilishi bilan bogʻliq toʻsiqlar, ota-ona hamda farzandlar oʻrtasidagi munosabatlarda milliy tarbiya xususiyatlarining oʻzgarib borish dinamikasini tahlil qilishda ham ushbu usul muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ijtimoiy-madaniy antropologiyada diniy yoki milliy unsurlarga asoslangan madaniyatni oʻrganishga doir nazariyalarning turli-tumanligi bu sohaning koʻproq etnos nazariyasiga xos boʻlgan etnologik tadqiqot uslubiga qurilganini koʻrsatadi. Gʻarb maktabi vakillari etnos nazariyasi oʻrniga ijtimoiy yoki madaniy antropologiya asosida anʼanalarni ijtimoiy hayot va madaniy masalaning bir qismi sifatida tadqiq qilishga oʻtgan boʻlsalar, boshqa mamlakatlarda, jumladan, sobiq SSSR tarkibidan ajralib chiqqan aksar mamlakatlarda bu masala etnos nazariyasi asosida tadqiq qilingan. Yaʼni, milliy va diniy anʼanalar aynan muayyan etnos yoki xalqqa doir hodisa sifatida oʻrganilgan yoxud ularning etnomadaniy xususiyatlarini ochib berish maqsad qilingan.

Oʻzbekistonda anʼanalarning, qaysi millat bu anʼanalarga amal qilishidan qatʼi nazar, zamonaviy jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotini ochib beradigan kod sifatida tadqiq qilinishiga doir tahlillar endi yaratilmoqda. Garchi xalqqa xos milliy va diniy qarashlar turli nazariyalar hamda fanlararo tadqiqotlarning mavzusi sifatida oʻrganilgan boʻlsa-da, bugungi kunda mazkur masalani ijtimoiy va madaniy antropologiya funksiyalari asosida xulosalash muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Assmann J. Madaniy xotira: yozuv, xotira va ilk sivilizatsiyalarda siyosiy identifikatsiya. — Myunxen: C.H. Beck, 1992. — 344 b.
2. Chandra K. Etnik partiya nima? // Party Politics. — 2011. — 17-jild, 2-son. — B. 151–169.
3. Malinowski B. Madaniyatning ilmiy nazariyasi va boshqa esselar. — Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1944. — 228 b.
4. Miller G. Marosimning huquqiy funksiyasi // Chicago-Kent Law Review. — 2005. — 80-jild,

3-son. — B. 1181.

5. Nora P. Xotira makonlari. 1-jild. — Parij: Gallimard, 1984. — 640 b.

6. Radcliffe-Brown A. Jamiyatning tabiiy fan sifatidagi nazariyasi. — Glencoe: Falcon's Wing Press, 1957. — B. 26.

7. Sulaeman S., Irta S. va boshq. Molukkadagi musulmon jamoalarida pela marosimi orqali identifikatsiya transformatsiyasi // Contemporary Islam. — 2022. — 16-jild, 2–3-son. — B. 225–257.

8. Suyitno I. va boshq. Banyuvangidagi Osing xalqi xarakterini shakllantirishda marosim an'alarining madaniy mazmuni // The Qualitative Report. — 2023. — 28-jild. — B. 2058.

9. Xia Chaoran. Marosimlarning tarqalishi va etnik madaniy qadriyatlarining shakllanishi tadqiqi // The Frontiers of Society, Science and Technology. — 2024. — 6-son. — B. 140–144.

10. Davletshin K. Milliy va diniy omillarning madaniyat va turmushdagi o'zaro ta'siri (Volga bo'yi va Ural oldi xalqlari misolida): avtoreferat ... falsafa fanlari doktori dissertatsiyasi. — Moskva, 1998. — 16 b.

11. Dyurkgeym E. Diniy hayotning elementar shakllari. — Moskva: Kanon, 1998. — B. 174–231.

12. Redklif-Braun A. Ijtimoiy antropologiyada metod. — Moskva: Kuchkovo pole, 2001. — 416 b.

13. Chetvertakova J. An'analarni o'rganish metodologiyasiga kulturologik yondashuvlar // Analitika kulturologii. — 2010. — 1-son. — URL: http://analiculturolog.ru/journal/archive/item/253-article_14-8.html